

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>G.Jo'rayeva</b>	
Firoqiy va Partav .....	314
<b>Z.Teshabojeva</b>	
Abduqayum yo'ldoshning obraz yaratish mahorati .....	318
<b>N.J.Abdusamatova</b>	
Katta va tayyorlov guruh bolalari nutqini rivojlantirish jarayoniga integrativ yondashuv orqali maktab ta'limiga tayyorlash samaradorligini ta'minlash .....	322
<b>Sh.A.Ermatova</b>	
Erkin Vohidovning "Nido" dostonini o'qitishda "Blum taksonomiyasi" dan foydalanish .....	326
<b>M.J.Jurabojeva</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qo'shiqlarni tinglash va tahlil etishga o'rgatishning o'ziga xosligi .....	331
<b>Sh.M.Usanov</b>	
O'zbekistonda millatlararo hamjihatlik va totuvlikning ta'minlanishida milliy madaniy markazlarning o'rnini.....	334
<b>V.A.Giyosova</b>	
Glyuttonimlar bilan ifodalangan bolalarga oid murojaat birliklari .....	339
<b>G.P.Abdullaev</b>	
Социкультурные и этнические особенности в развитии молодёжи в узбекских семьях под влиянием опыта пожилых.....	342
<b>J.Sh.Amayusupov</b>	
Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish bosqichlari.....	345
<b>M.T.Voxidova</b>	
Abu Nasr Forobiy asarlarida insonparvarlik masalalari .....	350
<b>N.M.Xodjibolayeva</b>	
Jadid mutafakkirlarining qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik imkoniyatlari .....	354
<b>Sh.M.Muxamedov</b>	
Materialshunoslik fanining elektron-dasturiy va metodik ta'minotini takomillashtirish.....	358
<b>S.I.Raxmatullayeva</b>	
Farg'ona viloyati axborot kutubxona markazi faoliyati tarixi .....	371
<b>M.A.Junaydullayev</b>	
Buxoroda jadidchilik harakatining vujudga kelishi tarixiy shart-sharoitlari .....	377
<b>M.M.Temirova</b>	
Ichki ishlar profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashda asosiy vazifalari va funksiyalari .....	382
<b>M.U.Kurbanov</b>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagogik jamoasini maqsadli boshqarishda ergonomik yondashuv .....	387
<b>M.O.Batirkhanova</b>	
Badiiy asarlardagi somatik frazeologik birliklar tarjimasining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari .....	391
<b>M.C.Ganieva</b>	
Особенности социально-философских взглядов по развитию женского предпринимательства.....	395
<b>I.A.Ismoilov</b>	
Jazo tushunchasi va uning mazmun-mohiyati xususida .....	401
<b>D.G'.Zaylobidinova</b>	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning metodik tizmi .....	405
<b>D.A.Abduraxmonov</b>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish masalasiga doir .....	408
<b>M.M.Yunusov</b>	
Universitetlarda "Kimyoviy texnologiya" fanini fanlararo bog'lanish asosida o'qitishning pedagogik-psixologik jihatlari .....	416
<b>G'.M.Alamov</b>	
Sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil qilishda xalq o'yinlarining o'rnini.....	420

**KATTA VA TAYYORLOV GURUH BOLALARI NUTQINI RIVOJLANTIRISH  
JARAYONIGA INTEGRATIV YONDASHUV ORQALI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH  
SAMARADORLIGINI TA'MINLASH**

**ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПОДГОТОВКИ К ШКОЛЬНОМУ  
ОБРАЗОВАНИЮ ЧЕРЕЗ ИНТЕГРАТИВНЫЙ ПОДХОД К ПРОЦЕССУ РЕЧЕВОГО  
РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ ВЗРОСЛЫХ И ПОДГОТОВИТЕЛЬНЫХ ГРУПП**

**ENSURING EFFICIENCY OF PREPARATION FOR SCHOOL EDUCATION THROUGH  
AN INTEGRATIVE APPROACH TO THE SPEECH DEVELOPMENT PROCESS OF CHILDREN  
OF THE ADULT AND PREPARATORY GROUPS**

**Abdusamatova Nargiza Jamoldinovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Namangan davlat universiteti, maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida dotsenti, PhD

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish va bu jarayonga integrativ yondashuv orqali maktab ta'limiga tayyorlash samaradorligini ta'minlash masalasi yoritilgan. Bolaning ijtimoiy hayotga kirib borishining dastlabki bosqichi tabiiyki, oson kechmaydi. Chunki bola faqatgina ota-onadan iborat bo'lgan tor doiradan tashqariga chiqadi va jamoa hayotiga kirib boradi. Bu jarayon turlicha individual xususiyatli bolalarga turli xil ta'sir ko'rsatadi. Maqolada bolaning jismoniy va ruhiy xususiyatlaridan kelib chiqib, uni ijtimoiy hayot tarziga ko'niktirish va jamoada erkin yashash malakasini shakllantirish yoritilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье рассматривается развитие речи детей дошкольного возраста и обеспечение эффективности подготовки к школьному обучению посредством интегративного подхода к этому процессу. Начальный этап приобщения ребенка к общественной жизни, естественно, нелегко. Потому что ребенок выходит за пределы узкого круга, состоящего только из родителей, и входит в жизнь общества. Этот процесс по-разному влияет на детей с разными индивидуальными особенностями. В статье с учетом физических и психических особенностей ребенка описано, как приучить его к социальному образу жизни и сформировать навыки свободной жизни в обществе.*

**Abstract**

*This article covers the development of preschool children's speech and ensuring the effectiveness of preparation for school education through an integrative approach to this process. The initial stage of the child's introduction to social life is naturally not easy. Because the child goes beyond the narrow circle consisting only of parents and enters the life of the community. This process has different effects on children with different individual characteristics. Based on the child's physical and mental characteristics, the article describes how to accustom him to a social lifestyle and form the skills to live freely in a community.*

**Kalit so'zlar:** maktab ta'limi, integrativ yondashuv, nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari, savodxonlik, aqliy faollik.

**Ключевые слова:** школьное образование, интегративный подход, речь, общение, чтение и письмо, грамотность, мыслительная деятельность.

**Key words:** school education, integrative approach, speech, communication, reading and writing skills, literacy, mental activity.

**KIRISH**

O'sib kelayotgan yosh avlod va ularning kelajakda qanday kasbni egallashlariga qarab, Respublikamiz kelajagini tasavvur qilsa bo'ladi. Kelajak yoshlarniki. Yoshlar faoliyati-faravon hayotimiz mezonidir. Xuddi shu ma'noda yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor berish bugunning dolzarb masalasi sanaladi.

Farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga etishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ta'lim-tarbiya tuzilishini hozirda davr talabiga ko'tarish har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga bog'liq. Chunki, jamiyat taraqqiyoti uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi bilan bir qatorda shu jamiyatda yashayotgan fuqarolarning intellektual va ma'naviy samaradorligiga ham bog'liq bo'ladi.

Rivojlangan mamlakatlarda joriy etilayotgan ta'lim texnologiyalaridan biri bu - maktabgacha ta'limni integratsiyalash jarayoni bo'lib, hozirgi kunda O'zbekiston ta'lim tuzilishida uning ilk

ko'rinishlari olib kirilgan[1]. Mashg'ulotlarda o'zaro bog'lanishdan foydalanish bolalarni har tomonlama puxta bilim egallashlarida muhim ahamiyatga ega. Chunki tabiat va jamiyatdagi barcha narsalar bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib o'quvchilar bu bog'liqlikni ilk maktabgacha yoshidanoq tushunishlari, bilimlarini hayotning barcha jabhalariga tatbiq qila bilishlari lozim. Ayniqsa, bugungi kunda bolalarni ana shu tarzda har tomonlama kamolga yetkazib ta'lim tarbiya berish oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biridir.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI:**

Hozirgi vaqtda pedagogik amaliyotda fanlararo bog'lanish asosida ta'lim jarayoni integratsiya yo'llarida izlanishlar davom etmoqda. Olib borilayotgan ishning foydalligini tan olgan holda uning xarakterini belgilab o'tamiz. Bunday tarbiyaviy ish katta samaraga ega. Mazmun va ta'lim maqsadi integratsiyasi bo'yicha masala faqat ta'lim falsafasi asosida yechish mumkin. Metodologik apparat asosidagi ta'lim falsafasi boshida fanning ideal shakllari, universal toifalari turishi kerak.

XIX-XX asrlar oralig'ida pedagogikada kichik maktab o'quvchilarining tabiiy muhit bilan tanishtirishning integratsiyalashgan kursini yaratish fikri paydo bo'lgan. Bu fikr A.Y.Gerd, D.N.Kaygorodov, A.P.Pavlov nomlari bilan bog'liq bo'lib, ular boshlang'ich maktabga atrofdagi jonli va jonsiz dunyo haqidagi bo'linmagan kursni kirgizishni talab qilishdi.

Integratsiyalashgan ta'lim-tarbiya, fanlararo aloqalarning ayrim jihatlari mashhur pedagoglarning (Y.Komenskiy, D.Lokk, I.Gerbert, M.Pestalossi, K.Ushinskiy va boshq.), didaktiklarning (I.D.Zverev, M.A.Danilov, V.N.Maksimova, S.P.Baranova, M.N.Skatkin va boshq.), psixolog olimlarning (E.N.Kabanova-Meller, N.F.Talizina, Y.A.Samarina, G.I.Vergeles), metodist olimlarning (M.R.Lvov, V.G.Goreskiy, N.N.Svetlovskaya, Y.M.Kolagin, G.N.Pristupova) ishlarida ko'rib chiqilgan[6].

Davlat tomonidan ta'limga berilgan e'tibor va bu sohadagi yuksalishlar ota-onalar tomonidan e'tirof etilib, farzand ta'lim-tarbiyasiga nisbatan ularni bu boradagi mas'uliyatini kuchaytirmoqda. Ota-onalarimiz tomonidan bolaning ushbu yosh davrida tezroq mustaqil o'qishni va yozishni bilishni istashlari haqida xohish-istaklarni bildiradilar. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash – dolzarb masala.

Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bola yosh rivojlanish bosqichlarida uning jismoniy, ma'naviy, imkoniyatlarini hisobga olmasdan turib, uni intensiv mashg'ulotlar bilan maktab ta'limiga tayyorlovga o'rgatish mumkin emas. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun maktab ta'limining shakl va metodlarini qo'llamaslik kerak. Bolalarning yoshga bog'liq psixofiziologiyasi, ushbu yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishi uchun maqbul sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'limga oid ish shakllari, didaktik o'yinlardan, ko'rgazmali-predmetli mashg'ulotlardan, bolalarning amaliy va tasviriy faoliyatining turli shakllaridan keng foydalangan holda tarbiyaviy ishlar usullari qo'llagan holda amalga oshirilish zarur. Bunday shakllar va usullar yosh bolaning fikrlash va faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga mos keladi, uning bilim faoliyatini rag'batlantiradi va intellektual rivojlanishga hissa qo'shadi.

#### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Mazkur maqolada muammoga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar, pedagogik-psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish, tizimli-struktur tahlil, kuzatish usullaridan foydalanilgan.

#### **TAHLILLAR VA NATIJALAR**

Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan xalqaro tajribalar hisobga olinib, 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta'lim-tarbiya berish va maktab ta'limiga tayyorlash maqsadida "Ilm yo'li" variativ dasturi ishlab chiqilgan bo'lib. ushbu dastur 6-7 yoshli bolalar uchun mo'ljallangan majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhlari maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq, bolaning rivojlanishidagi 5 muhim soha: bolalarning jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish sohalari har tomonlama uyg'un rivojlanishini ta'minlashga mo'ljallangan bo'lib, bunda bola ta'limiy faoliyatning yetakchi ishtirokchisi sifatida namoyon bo'ladi. Dastur talablari bolani har tomonlama rivojlantirib, maktab ta'limiga tayyorlaydi, unda turli xil ko'nikmalarni shakllantirishda xizmat qiladi. Bu yoshda bolani savodxonligi bo'yicha olib boriladigan ta'limiy jarayonlar bolalarda nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalarini rivojlantirish sohasi va bola rivojlanishining barcha sohalari bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshiriladi. Bolaning so'z boyligi oshadi, nutqqa nisbatan qiziqish uyg'onadi, unda mazmunli gapirish, boshlang'ich til bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish, badiiy adabiyotga muhabbat shakllanadi. Jamoada o'zini tutish, savollarga javob berish, kattalar bilan muloqotga kirishish va ular oldida

soʻzlash, shaxsiy qarorlarini qabul qilish, boshqalarga namuna boʻlish, qiyin vaziyatlarda amaliy yechim topish uchun intilish koʻnikmalari rivojlanadi. Bolada qoʻl barmoqlari mayda motorikasi rivojlantirilib, yozuv malakalari shakllanadi. Ular qogʻozda toʻgʻri chiziqlar, soʻzlar va qisqa gaplarni yozadi, yozuv qatorini aniqlay oladi, qoʻlni uzmasdan nuqta chiziqlarni birlashtirib rasm chizish malakalari shakllanadi.

Bolani bu yosh davrida ogʻzaki nutq asosiy oʻrinni egallaydi. Nutq rang-barang ifodali tovushlar yigʻindisidir. U bolani ertaga maktabda muvaffaqiyatli oʻqishi uchun zamin yaratadi. “Soʻz boyligi - deb taʼkidlagan edi Q.Shodiyeva - bolaga barcha mashgʻulotlarda beriladigan bilimlarni tez va puxta oʻzlashtirib olish va bu bilim, tushunchalarni nutq orqali ifodalash imkonini beradi”[5]. Bola nutqining rivojlanishi bevosita uning lugʻatiga bogʻliq. Albatta shuni taʼkidlash lozimki, bolaning lugʻat boyligi bola dunyoni anglashi orqali ifodalanadi. Bola maʼlumotlarni atrof-muhitni kuzatish, ota-onalar, kattalar, tarbiyachilar, oʻrtoqlari, kitoblar, filmlar, mashgʻulot va oʻyinlar orqali oladi. Bularning barchasida bolaga maʼlumotlar ogʻzaki nutq orqali beriladi. Buning natijasida bolaning lugʻat boyligi oshib borishi, u soʻzlar, ularning maʼnosi, ularni qoʻllab, gaplarni grammatik jihatdan toʻgʻri tuzishni, toʻgʻri tovush talaffuzini amalga oshirishi zarur. Bolaga bu maʼlum qiyinchiliklarni tugʻdiradi. Bu jarayon boladan aqliy faollikni talab etadi. Bunda tarbiyachilar tomonidan bolani nutqini rivojlantirish va uning savodxonligini amalga oshirish boʻyicha tizimli taʼlim-tarbiyaviy ishlar amalga oshirilishi zarur. Bu jarayonlar “Ilk qadam” oʻquv dasturi va “Ilm yoʻli” variativ oʻquv dasturi asosida maktabgacha taʼlim tashkilotlarida va majburiy tayyorlov guruhlarida nutq oʻstirish mashgʻulotlari, rivojlanish markazlari, sayr, ekskursiyalar yaʼni faoliyatlar integratsiyasi orqali mustahkamlanadi. Tarbiyachilar tomonidan bolalarni oʻqish va yozish malakalarini shakllantirish maktabgacha yoshga doir maxsus metodikalar orqali olib boriladi.

Katta va tayyorlov guruh bolalarini maktab taʼlimiga tayyorlash hamda ularning savodxonligini rivojlantirish quyidagi talablarga boʻysunadi.

- bolani rivojlantirishga qaratilgan qulay, doʻstona, xavfsiz muhitni yaratish. Bolalar jamoasida doʻstona munosabatni qadrlash. Bolaga yoʻnaltirilgan taʼlimga yondashuv asosida taʼlim-tarbiya berish, uzoq davom etadigan mashgʻulotlar bilan emas, balki bolada qiziqishni uygʻotadigan, uni hayratlantiradigan oʻyinlardan iborat taʼlimiy jarayonlarni tashkil etish. Oʻyindan asosiy taʼlimiy faoliyat sifatida foydalanish. Didaktik vositalarni keng qoʻllash.

- bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning xotirasi, diqqati, nutqi, tafakkurini inobatga olish. Bolada oʻqishga nisbatan xohish, istak, qiziqish uygʻotish. Kattalar tomonidan bolaga bosim oʻtkazish, uning erishgan natijalaridan qoniqmaganlikni bildirish man etiladi.

- olib boriladigan taʼlim va tarbiyaviy jarayonlar ketma-ketlikda, oddiydan murakkablashib borishi zarur.

- tizimli ravishda bolada kichik yosh davridan boshlab soʻzlarni toʻgʻri talaffuzini rivojlantirish. Tarbiyachi oʻz nutqiga nisbatan talabchan boʻlishi.

- bolalarda oʻz nutqida toʻgʻri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiyalaridan va yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalana olishga boʻlgan ishonchni hosil qilish.

Maktabgacha taʼlim bolani yangi hayot pogʻonasiga tayyorlashdek muhim vazifani bajaradi. Bolaning ijtimoiy hayotga kirib borishining dastlabki bosqichi tabiiyki, oson kechmaydi. Chunki bola faqatgina ota-onadan iborat boʻlgan tor doiradan tashqariga chiqadi va jamoa hayotiga kirib boradi. Bu jarayon turlicha individual xususiyatli bolalarga turli xil taʼsir koʻrsatadi. Tarbiyachi bolaning jismoniy va ruhiy xususiyatlaridan kelib chiqib, uni ijtimoiy hayot tarziga koʻniktirish va jamoada erkin yashash malakasini shakllantirishdir. Jamoaviy muhit bolada ijobiy xislatlarni vujudga kelishiga turtki boʻladi.

Taʼlim tizimida maktabgacha taʼlim sohasini takomillashtirishdan maqsad bu - bolani maktab taʼlimiga har tomonlama tayyorlash bilan birga hayotiy koʻnikmalarni tarkib toptirishdan iborat. Bolalarning intellektual-madaniyatli shaxs boʻlib shakllanishida maktabgacha yosh davri muhim oʻrinni egallaydi. Bolani maktabga tayyorlik darajasi deganda, uning aqliy, axloqiy hamda psixologik rivojlanish koʻrsatkichlari nazarda tutiladi.

Boladagi intellekt maʼlum bilim doirasini hosil qilgan, nutqi oʻsgan holatda va fikrlab javob qaytarish, maktab oʻquv dasturiga qoʻyilgan talablarni ortiqcha qiyinchiliklarsiz oʻzlashtirish darajasida boʻlishi lozim. Axloqiy sifatlarida oʻz xulq-atvorini idora qilish, nojoʻya hatti-harakatlardan oʻzini tiya bilish, xulq-atvor qoidalariga boʻysinish kabi xususiyatlar mujassamligi zarur. Psixologik

ko'rsatkichlarda ixtiyoriy idrok, barqaror diqqat, obrazli, so'z-mantiqiy, mexanik turlardagi xotira shakli, analizsintez, taqqoslovchi va umumlashtira oluvchi xususiyatli tafakkur, tiklovchi xayol va ravon nutqning rivojlangan bo'lishi talab qilinadi. Bu ko'rsatkichlarning barchasi maktabga tayyorlov guruhi bolalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayrim sabablar natijasida bu xususiyatlar barcha bolalarda bir maromda rivojlanmasligi mumkin. Shuning uchun ta'lim samaradorligini oshirishda va bolalar savodxonligini yuksaltirishda ta'limga noan'anaviy metodlarni joriy etish takomillashib bormoqda.

Maktabgacha ta'limni integratsiyalashning mohiyati bu - bolaga barcha elementlari bir-biriga bog'liq yaxlit olamni o'z tasavvurida yaratib borishiga yordam beruvchi dastlabki bilimlarni o'rgatishdan iborat. Bu uslub bolani ortiqcha zo'riqishdan asrash, uning vaqti va kuchini tejagan holda o'quv-bilish jarayonining samaradorlik darajasini orttirish imkoni beradi. Chunki bolalar bir vaqtning o'zida bir nechta faoliyatga jalb qilinadi va mashg'ulot uchun qo'yilgan maqsadga to'la erishish imkoniyati ta'minlanadi. Bugungi kunga kelib jahondagi mamlakatlarning 70 foizi ta'lim tizimida integrativ xarakterdagi o'quv dasturlaridan foydalanib kelmoqda. Bizda bu borada dastlabki qadamlar ayniqsa, maktabgacha ta'lim sohasida yaxshi yo'lga qo'yilmoqda. Bola o'ziga notanish dunyo hodisalari haqida eshitsu xayol suradi, ko'rgach esa unda tasavvur hosil bo'ladi, o'z tajribasida sinab ko'rsa mustaqil bilim egasiga aylanadi. Integrallashtirilgan darsning maqsadi – bu asrning bolalari uchun ijodiy, badiiy, o'yinchoq, mavjud bo'lgan faoliyat turlari bilan konsepsiya, obyekt yoki hodisani keng qamrovli, ongli ravishda o'rganishdir[3].

Maktabgacha ta'lim jarayonining quyidagi faoliyat shakllarida integral loyihalashga asoslangan ta'limni amalga oshirish mumkin: Maktabgacha ta'limda integral loyihalardan barcha yosh guruhlarida foydalanish imkoni mavjud. Bunda tarbiyalanuvchilar ma'lum bir faoliyatga jalb qilinadi va uning xususiyatlarini mustaqil ravishda o'rganish uchun mikromuhit yaratiladi. Bola 6-7 yoshga kelib o'qish jarayonida murakkablashadigan axborotlarni qabul qilish va qayta ishlashga tayyor bo'ladi. Shuning uchun integrallashtirilgan faoliyatlar boshqa ta'limiy faoliyatlardan farqli ravishda erkin tajriba tarzida o'tkaziladi. Chunki uyg'unlashgan turli yo'nalishdagi ma'lumotlardan iborat murakkab bilimlarni bolaning ongi va tafakkurida shakllanishi mustaqil tajribaga tayanadi. Integrallashtirilgan mashg'ulot olib borayotgan tarbiyachi bunday mashg'ulot maqsadi va mohiyatini to'liq anglab yetishi zarur. Shundagina samarali natijaga erisha oladi. Xususan, bir fikrni ikkinchisi bilan aniq dalillarga tayanib bog'lab ketish talab qilinadi. Chunki bir faoliyat bilan shug'ullanayotgan bolani to'xtatib, ikkinchi bir fa'oliyatga o'tkazib ketib bo'lmaydi. Bu vaqtda, birinchidan, uning diqqati bo'linadi, fikrlari chalg'iydi, ikkinchidan, esa o'z mehnati mahsulini ko'rishdan mosuvo bo'lib qoladi. Bola o'zi bajargan vazifani natijasini ko'rishni xohlaydi, ma'lum bir yutuqqa erishishga intiladi. Bola uchun tarbiyachi beradigan rag'bat juda katta ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yosh davridagi bolalarda raqobat muhitining ustunlik mohiyati ham ana shunda. Bola shaxsida o'z-o'ziga nisbatan yuqori baho ko'proq ko'zga tashlanadi. Tarbiyachi-pedagog boladagi xulq-atvor bilan bog'liq kamchiliklarga e'tibor qaratishi, jamoada do'stona muhit yaratishda jonbozlik ko'rsatishi lozim[4].

### XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bolalarni 6-7 yoshda maktab ta'limiga tayyorlash, ularda ertaga maktab dasturlarini yaxshi o'zlashtirishlari, shuningdek, ularning intilishlari, qobiliyatlarini namoyon qilishga imkoniyat yaratadi. Bolalarni maktabga tayyorlashda, maktabgacha yoshdagi bolalik inson tafakkuri va umuman inson shaxsini shakllantirish jarayonida alohida rol o'ynaydi, jamiyatimizning ongli avlodini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish jarayoniga integrativ yondashuv orqali maktab ta'limiga tayyorlash samaradorligini ta'minlash bugungi kundagi eng muhim masala hisoblanib, bu borada samarali ishlarni olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. J.Hasanboyev, X.To'raqulov, I.Alqarov, N.Usmonov "Pedagogika" Toshkent. 2011. 41- 43-betlar
2. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova "Boshlang'ich ta'limni integratsiyalashgan pedagogikasi" Toshkent – "ILM ZIYO" 2009-yil 5-6 betlar
3. <https://uz.everaoh.com>. "Bolalar bog'chasida integral darslar"
4. F.A.Boltayeva. The Essence of Integrating Innovative Technologies in Preschool Education. Pindus Journal Of Culture, Literature and ELT. 110-b <https://literature.academicjournal.io/index.php/literature/article/view/256>
5. Shodiyeva Q. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. - T.: "O'qituvchi", 1995.
6. R.Mavlonova. N. Rahmonqulova. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va intergatsiya.